



TANLA VA TOP

Hayoti va ijodi	1	2	3	4	5	6	7	8
Nazm gulshani	1	2	3	4	5	6	7	8
Nodir durdona	1	2	3	4	5	6	7	8
Ta'riflar	1	2	3	4	5	6	7	8



1.O'smirlik davrida Alisher o'qishda va yozishda tinim bilmas, she'r mutolaasidan chekinmas edi. "Muhokamat ul- lug'atayn " asarida o'zining yoshlik chog'ida mashhur o'zbek va fors shoirlari nazmidan yod bilganini aytadi. **Diqqat savol:** Alisher Navoiy yoshlik chog'ida o'zbek va fors shoirlari nazmidan qancha bayt yod bilgan?





2. Navoiy 1460-yillarning ikkinchi yarmida Samarqandda yashadi. Temurbek poytaxt qilgan bu shahar uning hayotida o'chmas iz qoldirdi. Shu yerda Islom olamida mo'tabar sanalgan Fazlulloh Abulays Samarqandiydan saboq oldi. Shu yerda shoir sifatida juda katta shuhrat topdi.

Diqqat savol: Navoiy o'z asarlarida Samarqandni qanday ta'riflagan?




3. 9- “V” sinf o’quvchisi Mustafoyev Sanjarning savoli. 1487-yili qishida Husayn Boyqaro Navoiyni hokim etib tayinlaydi. Navoiy ikki yillik hokimlik faoliyati davomida bu chekka o’lkani obod qilish, madaniy ishlarni yo’lga qo’yish, chegaradoshdavlatlar bilan munosabatlarni yaxshilash uchun muhim tadbirlarni amalga oshirdi. **Diqqat savol:** Husayn Boyqaro 1487-yili qishda Navoiyni qaysi shaharga hokim qilib tayinladi?

4. Badiiy ijodning ikki tilda yaratilishi ham Navoiy yashagan davrning muhim xususiyatlaridan edi. Zullisonaynlik an'anasi ham Navoiy timsolida o'zining oliy cho'qqisiga ko'tarildi. Navoiy yashagan davrda yana kimlar ikki tilda ijod qildi?





5. Zahiriddin Muhammad Bobur nihoyatda go'zal she'r-u g'azallar bitgan. Uning ijodining asosiy mavzusi yurt sog'inchi , Vatan ayriliqi hisoblanadi. Nasrda ham, nazmda ham samarali ijod qilgan Boburning bizgacha yetib kelgan devonida qancha g'azal va ruboiy bor?



6. 1501-yili Bobur va Shayboniyxon o'rtasida jang bo'lib o'tadi. Ushbu to'qnashuvda Bobur g'olib kelib Samarqandni egallaydi.

Diqqat savol: Jangda Bobur va Shayboniyxonning qancha qo'shini to'qnashgan?



7. Boburning umri deyarli jang-u jadallarda o'tgan. Shunday bo'lsada u ijoddan to'xtamagan. Afsuski, uning barcha asarlari bizgacha yetib kelmagan. Ana shu asarlarning nomlarini ayting.




www.aim.uz




8. “Boburnoma” dastlab qanday nomlar bilan atalgan?



Diqqat savol: Ushbu misralarni diqqat bilan tinglang , unda qaysi devon nazarda tutilgan?



2. Boburning “Yaxshiliq” g’azalini tinglang va qofiyadosh so’zlarni hamda radifni aniqlang.



3. Bobur g'azalini tinglang. "Charhning men ko'rmagan jabr-u jafosi qoldimu..." Diqqat savol: Bu g'azalning yozilish tarixini so'zlang.



4. Navoiy g'azalini diqqat bilan tinglang va qofiyadagi tojikcha so'zlarni aniqlang.




5. “Mening ko’nglimki gulning g’unchasidek tahba-tah qondur,


Agar yuz ming bahor o’lsa ochilmog`l ne imkondur. ” deb boshlanuvchi g`azal qayerda va nima sababdan yozilgan?




6. Bobur va Navoiyning bir biriga o'xshash g'azal va ruboiylarini ayting.




7. Diqqat Navoiyning ruboiysini tinglang. Qofiyalanish tartibiga ko'ra ruboiy turini aniqlang.



8. Emas oson bu maydon ichra kirmoq,
Nizomiy panjasiga panja urmoq.
Kerak sher oldida ham sheri jange,
Agar sher bo'Imasa, bore palange.
Ushbu misralar qaysi asardan olingan?




www.aim.uz



1. Alisher Navoiyning “Xamsa” asariga yuksak baho bergan Husayn Boyqaro buyuk shoirni o‘zining oq otiga mindirib, unga jilovdorlik qilib, Hirot ko‘chalarini aylantirdi. Bu insoniyat tarixida kamdan kam uchraydigan hodisa edi. Mazkur hodisa Husayn Boyqaroning ma‘nan yuksak, ma‘rifatli hukmdor bo‘lganining dalilidir.


Diqqat savol: Alisher Navoiy qaysi asarida Husayn Boyqaroni shoh G‘oziy deya ulug‘laydi?





2. Navoiy aruz ilmiga bag'ishlab "Mezon ul-avzon" degan asar ham yozgan. Unda aruz vaznining mohiyati, tuzilishi, bu vaznning turlari, juzv va bahrlari haqida ma'lumot beradi. Bu asarda tuyuq, qo'shiq, chinga, muhabbatnoma, aruzvoriy, turkiy singari she'riy shakl va janrlar haqida ham ma'lumot beradi.


Diqqat savol: "Mezon ul-avzon"da tilga olingan chinga nima?



3. Navoiy 1498-yilda nodir asar yaratadi.


Unda alloma adib, o'z tili bilan aytganda “nazm saroyining andalibi nag' masaroyi” sifatida eski o'zbek tilini, uning badiiy uslubini, ilmiy nazariy jihatdan har tomonlama asosladi, turkiy til imkoniyatlarini amaliy jihatdan isbotlab ko'rsata oldi. Bu asar qaysi asar edi?

4. “Bu asar hazrati xoqon Shohruh mirzo podshohligi davridan boshlab , shu zamonga qadar yer yuzini ravshan vujudlari bilan bezagan va bezab turgan olim va shoirlaridan ko’plarining ba’zi sifatlaridan va ahvollaridan bayon qiladi ” ,-deb bildirilgan fikrlar kimning qaysi asaridan olingan? Ushbu ta’rifda Navoiyning qaysi asari nazarda tutilgan?



5. “Bahorda Boron cho’li, Choshtuba dashti va Gulbahor etaklari juda fayzli bo’ladi. Sabza Kobul viloyatining boshqa yerlariga qaraganda xiyla yaxshi bo’ladi: turli-tuman lolalar ochiladi. Bir marotaba lola navlarini sanashni buyurdim ...” deb yozadi Bobur.

Savol: Boburning buyrug’iga ko’ra lola navlari sanalganda qancha nav lola chiqadi?



6. 1.Zakovat qutisi olib chiqiladi:

Amirul mo'aminin Usmon zamonidan musulmon bo'lgan, Iskandar bino qilgan, Temurbek poytaxt qilgan, Mo'gul va turk ulusi Semizkand deb atagan shahar ikki narsasi bilan mashhurdir. Ushbu qutichada shu narsalar bor. Ularning "Boburnoma"da keltirilgan nomlarini toping.



7. 2.Zakovat qutichasi olib chiqiladi: Alisher Navoiy “Hayrat ul-abror” dostonining o‘ninchi maqolotida egrilik va to‘grilik haqida yozadi. Shoir egrilik va to‘grilikni turli narsalarga o‘xshatadi. To‘grilik o‘xshatilgan ikki narsa shu qutichada. Ularni toping.






“Boburnoma”da tilga olingan Chiniyxona va masjidi Laqlaqa qayerda joylashgan ? Nima sababdan shunday nomlanadi?



1. “...Turkiston mulkining shayx ul-mashoyixidur. Maqomati oliy va mashhur, karomati matavoliy va nomahsur ermish. Imom Yusuf Hamadoniyning as’hoqlaridindur” Ushbu ta’rif kimning qaysi asaridan keltirilgan va gap kim haqida ketyapti?





2. Navoiy “Majolis un-nafois” asarida “... . darveshvasht va xushxulq, munsabit kishi erdi. O‘z zamonasida she‘ri atrok orasida ko‘p shuhrat tutti....Mavlono ko‘p turkona aytur erdi...” deb kimni ta‘riflaydi? Ta‘rifdagi atrok so‘zining ma‘nosi nima?



3. “Uning (ya’ni Navoiyning) kelib chiqishi baxshilarga borib taqaladi. Otasini “Kichkina baxshi” deyishgan, u saroyda amaldor bo’lgan. ... Sulton Husayn mirzo padshoh bo’lgach, Alisher Navoiy uning xizmatiga kelgan, mirzo uni behad qadrlab, g’amxo’rlik ko’rsatgan, Mir Alisher esa xalqqa xuddi shunday g’amxo’rlik qilgan”.


Savol: Navoiy haqida ushbu fikrlar kimga tegishli?





4. Siz har yili ulug' bobokalonimiz, buyuk shoir hazrat Navoiy sharafiga bag'ishlangan turli tadbirlarda u zotni ta'riflab "Gazal mulkning sultoni" deb ataysiz. Ana shu ta'rifni ilk bor qo'llagan ijodkor kim?




5. “Bobur dilbar shaxs ,Uyg’onish davrining tipik hukmdori, mard va tadbirkor odam bo’lgan, u san’atni , adabiyotni sevardi.... Uning nabirasi Akbar yana ham dilbarroq bo’lib , ko’p yaxshi fazilatlarga ega bo’lgan ”. Ushbu fikrlar kimga tegishli?



6. “Boburnoma”da “hanafiy mazhabliq , pokiza e’tiqodliq kishi erdi.... Ravon savodi bor edi. “Xamsatayn” va masnaviy kitoblarni va tarixlarni o’qub edi. Aksar “Shohnoma”ni o’qur edi.” deb ta’riflangan kishi kim?



7. “Boburnoma”ni ko’chirgan kotib tomonidan yozilgan fikrlarga ko’ra Bobur har doim shoir va san’at ahli bilan suhbatda bo’lgan. Ularning orasida Mavlono Shihob Muammoyi ham bo’lgan. Bu shoirning taxallusi nima deyilgan?



8. “Boburnoma”ga
ishlangan
miniatyuralarning
birida Boburning
to’rtta qayig’i aks
etgan.

Shu qayiqlarning
nomini ayting.

